



Milliy iqtisodiyotda Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan investitsiyaviy hamkorlikning amaliy tahlillari

Xudoyarov Anvar Aidjanovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedroasi dotsenti, anvarxudoyarjv111@gmail.com

UDK. 338,48(575,1)330322

ORCID. <https://orcid.org/0000-0002-2333-2396>

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan investitsiyaviy hamkorlik O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

SHHTga a'zo davlatlar - Xitoy, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqalar katta investitsiya salohiyatiga, yirik bozor hajmiga hamda zamonaviy texnologiyalarga ega. Bu esa milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bilamizki investitsiyaviy hamkorlik bu davlatlar o'rtasida kapital, texnologiya, tajriba va innovatsiya almashinuviga asoslangan uzoq muddatli iqtisodiy munosabatlar majmuasi bo'lib quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- o'zaro manfaatdorlik va teng huquqlilik;
- iqtisodiy suverenitetni hurmat qilish;
- uzoq muddatli strategik sheriklik;
- barqaror rivojlanish va mintaqaviy xavfsizlik.

Bu tamoyillar milliy iqtisodiyot uchun investitsiyalarni samarali jalb etish va ulardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi. Natijada SHHT mamlakatlari bilan qo'shma investitsiya loyihalari soni va hajmi sezilarli darajada oshdi.

"Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faoliyat" bo'limining 2024 yil - dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra so'nggi besh yilda O'zbekistonga kiritilgan investitsiyalaridagi ulushi 38 foizdan 52 foizgacha oshgan. Bu SHHT doirasidagi iqtisodiy ishonch va institusional hamkorlikning mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston va SHHT mamlakatlari o'rtasidagi asosiy hamkorlar va yo'nalishlar yuzasidan taxlil qiladigan bo'lsak quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratamiz:

- **Xitoy Xalq Respublikasi:** energetika, transport infratuzilmasi, sanoat va raqamli iqtisodiyot sohalarida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.
- **Rossiya Federatsiyasi:** neft-gaz, kimyo sanoati, mashinasozlik va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shma korxonalar tashkil etilgan.
- **Qozog'iston va Markaziy Osiyo davlatlari:** logistika, savdo-sanoat zonlari va qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi rivojlanmoqda.

• **Hindiston va Pokiston:** farmatsevtika, to'qimachilik va axborot texnologiyalari sohalarida istiqbolli hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Bu investitsiyalar milliy iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va texnologik yangilanishga xizmat qilmoqda.

Natijada, SHHT mamlakatlari bilan amalga oshirilayotgan qo'shma investitsiya loyihalariga oid rasmiy axborotlarga ko'ra SHHT mamlakatlarining O'zbekiston investitsiya portfelidagi ulushi o'sib borayotganini quyidagi diogrammada ko'rishimiz mumkin.



Taxlillarimiz natijalarida investitsiyalardagi o'sish tendensiyalari kuzatilib 2021 yildan keyin sezilarli darajada jadallashganligini ko'rsatadi, bu esa:

- iqtisodiy liberallashtirish,
- soliq va bojxona imtiyozlari,
- erkin iqtisodiy

zonalar faoliyati bilan bevosita bog'liq.

SHHT mamlakatlari bilan investitsiyaviy hamkorlikning milliy iqtisodiyotga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish;
- sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- infratuzilma rivoji va hududiy taraqqiyotni jadallashtirish;
- eksport hajmini oshirish va tashqi savdo geografiyasini kengaytirish.


Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlari orqali investitsiyalarni jalb etish amaliyoti o'z samarasini bermoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari O'zbekistonning eng yirik investitsiya sheriklariga aylandi. Ayniqsa, Xitoy va Rossiya ishtirokidagi loyihalar energetika, sanoat va infratuzilma sohalarida iqtisodiy o'sishni jadallashtirmoqda. Davlat statistika organlari va sohaviy vazirliklar ma'lumotlari bu hamkorlik milliy iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

SHHT mamlakatlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritishdagi ulushi (2024 y.)

Davlat	Ulush (%)	Asosiy investitsiya yo'nalishlari
Xitoy	58 %	Energetika, transport, IT, sanoat
Rossiya	24 %	Neft-gaz, kimyo, mashinasozlik
Qozog'iston	7 %	Logistika, qishloq xo'jaligi
Hindiston	6 %	Farmatsevtika, to'qimachilik
Pokiston	3 %	Savdo, yengil sanoat
Boshqalar	2 %	Turizm, xizmatlar

SHHT investitsiyalarining qariyb 82 foizi Xitoy va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi, bu esa strategik hamkorlikning yuqori darajasini ko'rsatadi

SHHT investitsiyalarining sohalar kesimida taqsimlanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak;



Tashkil etadi va eng katta ulush energetika va sanoat sohalariga to'g'ri kelmoqda. Biroq, ta'kidlash joyizki so'nggi yillarda IT va innovatsion loyihalar ulushi tez sur'atlarda o'smoqda, bu investitsiya sifatining tashkiliy-iqtisodiy jixatdan takomillashuvini ta'minlaydi.

Shu bilan bir qatorda, taxlillarimiz natijalariga ko'ra investitsiyaviy hamkorlikni takomillashtirishda yechimini amalga oshirishimiz kerak bo'lgan qator vazifalarimiz ko'zga tashlanmoqda, bular;

- logistika va transport xarajatlarining yuqoriligi;
- ayrim sohalarda institusional to'siqlar;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli resurslar yetishmasligi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni kiritish joyiz deb xisoblaymiz:

- SHHT doirasida qo'shma investitsiya jamg'armalarini tashkil etish;
- transchegaraviy infratuzilma loyihalarini jadallashtirish;
- investitsiya qonunchiligini yanada liberallashtirish va himoya mexanizmlarini kuchaytirish orqali samarali natijalarga erishish.

Xulosa qilib aytganda, Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan investitsiyaviy hamkorlik milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mazkur hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Kelgusida SHHT doirasida investitsiyaviy aloqalarni yanada takomillashtirish, innovatsiya va texnologiyalarga asoslangan qo'shma loyihalarni kengaytirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар.

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги “Ўзбекистон Республикасида инвестиция сиёсати ва тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар тўғрисидаги йиллик хисоботлар” (2019-2024 йиллар).

2. Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги “Инвестициялар ва ташқи иқтисодий фаолият” бўлими маълумотлари.

3. Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги ШХТ мамлакатлари билан амалга оширилаётган қўшма инвестиция лойиҳаларига оид расмий ахборотлар.

4.Шанхай ҳамкорлик ташкилоти Котибияти (SCO Secretariat) “Economic Cooperation and Investment Reports”, йиллик таҳлилий ҳисоботлар.

5. Очилов Б., Ҳошимов Ж., Бутаев Ж. Иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб этишда мамлакат инвестицион жозибадорлиги: назария ва амалиёт, монография. – Т.: Илм-маърифат, 2024. Б. 164.

6.Худояров А.А. Ўзбекистоннинг шанхай ҳамкорлик ташкилоти мамлакатлари билан инвестициявий ҳамкорлигини ривожлантиришнинг самарадорлиги. Монография.Т. “IMRESS MEDIA” 2025. Б.77.